




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA KIBERJINOYATLARGA QARSHI KURASH

Jabbarova Umida Abdimurat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti, 1-kurs

Jabbarovaumida177@gmail.com

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-avgust 2026 yil

Ma'qullandi: 11-avgust 2026 yil

Nashr qilindi: 12-avgust 2026 yil

KEY WORDS

kiberjinoiyat, kiberxavfsizlik,
transchegaraviy kiberjinoiyat,
axborot,kibermakon, kibertahdid,
kiberhujum, xakkerlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada kiberjinoiyatlar, ularning jamiyat xavfsizligiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri hamda mazkur turdagi jinoyatlarning oldini olishda mavjud huquqiy bo'shliqlar tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan huquqiy tartibga solish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kiberjinoiyatlar sonining ortishiga sabab bo'layotgani yoritilgan. Maqolada kiberjinoiyatlarning oldini olish va ularga qarshi samarali kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

Kirish

Globalashuv davrida raqamli texnologiyalar kun sayin jamiyat hayotining turli tarmoqlariga kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalar insoniyatga qulayliklar yaratishi bilan bir qatorda ayrim jiddiy muammolarni ham yuzaga keltiryotgani sir emas. Shu jumladan, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kiberjinoiyatlarning ham xavfi ortib borishiga qulay imkoniyat yaratib axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilgan jinoyatlar esa nafaqat ma'lum bir shaxsga, balki jamiyat va davlat manfaatlariga ham jiddiy tahdid solmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi kiberjinoiyatlarning oldini olish bo'yicha mavjud muammolarni aniqlash hamda muammoni bartaraf etish yuzasidan huquqiy takliflar berishdan iborat. Tadqiqot davomida kiberjinoiyatlarni kamaytirish bo'yicha milliy va xalqaro mexanizmlar tahlil qilinadi. Kiberjinoiyat – axborot tarmoqlarni, kompyuter texnologiyalari vositasida sodir etiladigan zamonaviy jinoyat turlaridan biridir hamda kiberjinoiyatning o'zi ham bir qator kichik tarmoqlarga bo'linib ketadi. Kiberjinoiyatlar asosan kompyuter tizimlariga ruxsatsiz kirish, ma'lumotlarni o'g'irlash yoki qo'lga kiritish, onlayn firibgarlik kabi harakatlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan bir qatorda, hozirgi kunda sun'iy intellektning rivojlanishi davomida sun'iy intellekt yordamida sodir etilayotgan noqonuniy harakatlar yoki ijtimoiy tarmoqlarga turli formatdagi fayllarni yuborish orqali kiberjinoiyat sodir etilayotganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Axborot texnologiyalari taraqqiy etib borar ekan, kiberjinoiyatlarning ham qamrovi kengayib bormoqda hamda yangidan yangi kiberjinoiyat turlari paydo bo'lmoqda.

Usullar

Mazkur tadqiqot kiberjinoyatning oldini olish bo'yicha bo'shliqlar hamda ularni bartaraf etishning samarali usullariga qaratilgan bo'lib, bir qator metodologik usullardan foydalanilgan. Avvalo, kiberjinoyatning kelib chiqish tarixi haqida to'xtalsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Kiberjinoyatning rivojlanish tarixini ikki bosqichda ko'rishimiz mumkin. Birinchi davr: elektron hisoblash mashinalari yaratilish tarixidan boshlab 1990-yilgacha. Birinchi davrni hakkerlikni rivojlanishi bilan bog'liq holda ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida o'tkan asrning 60-yillariga borib taqaladi. Kompyuter jinoyatlarini rivojlanishining ikkinchi davri o'tkan asrning 90-yillari o'rtalaridan boshlanadi. Bu davrda yuqori tezlik bilan internet tarqala boshlagan. Hozirgi kunga kelib internet foydalanuvchilari kun sayin oshmoqda. Shu bilan bir qatorda kibertahdidlar va kiberjinoyatlar ham ko'paymoqda. Kiberjinoyatlarni oldini olish uchun xalqaro hamda milliy maydonda bir qator tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan, 2001-yil 23-noyabrda Vengriyaning Budapesht shahrida milliy qonunlarni uyg'unlashtirish, tergov usullarini takomillashtirish va davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni oshirish orqali internet va kompyuter jinoyatlarini hal qilishga qaratilgan birinchi xalqaro shartnoma tuzildi¹. Bu kiberjinoyatchilikni tartibga soluvchi birinchi ko'p tomonlama qonuniy majburiy vositadir. O'zbekiston Respublikasida ham 2022-yil "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun qabul qilindi hamda kibermakonga oid tushunchalar, vakolatli davlat organiga yuklatilgan vazifalar, davlat organlari va tashkilotlarning kiberxavfsizlikni ta'minlash borasidagi huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yildi. Tadqiqotni ikki normative-huquqiy hujjat doirasida tahlil qiladigan bo'lsak, Budapesht konvensiyasi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha xalqaro shartnoma hisoblanib, uning maqsadi ushbu jinoyatga faqat individual tarzda emas, balki umumiy global doirada kurashish maqsadida hamkorlikka chorlagan hujjatdir. Shunday bo'lada, ayrim yirik davlatlar: masalan, Hindiston, Braziliya, Rossiya kabi davlatlar ushbu konvensiyaga qo'shilmagan. Shuning uchun uning xalqaro ahamiyati hali ham ortib bormoqda. Kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonun kibermaydondagi qonunchilik hujjatlarining asosidir hamda unda mamlakatning axborot tizimlari, kiberhujumlarga qarshi kurashish bo'yicha vakolatli davlat organlari faoliyatini tartibga solishdan iborat. Shuningdek, kiberxavfsizlik bo'yicha mas'ul organ qilib Davlat xavfsizlik xizmati qilib belgilangan.

Natijalar

Bizning yurtimizda ham kiberjinoyatlarning soni oshgani sir emas. Ayniqsa, kiberjinoyat firibgarlik orqali sodir etiladigan holatlar ko'p uchramoqda. Jumladan, so'ngi yillarda firibgarlik yo'li bilan plastic kartaladan pul yechib olish hamda turli xil formatdagi fayllarni yuborilishi oqibatida hakkerlar qurboni bo'lib qolgan shaxslarning soni ortyabdi. Masalan, 2024-yilda O'zbekistonda sodir etilgan kiberjinoyatlarning 97,7% bank kartalaridan pulni noqonuniy yechish hamda firibgarlik bilan bog'liq ekani ma'lum qilindi. Davlat statistikasiga ko'ra so'ngi besh yilda kiberfiribgarlik natijasida fuqarolarning jami 1,9 trln so'mga yaqin mablag'i yo'qotildi. Shuningdek, kiberhujumlarning 60%iga yaqini zararli APK va havolalar orqali sodir etilgan². Shuning bilan birga "statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo yoshlarining 96%i ijtimoiy tarmoqlar vositasida o'zaro muloqotga kirishmoqda. Muloqotlar ko'pincha kiberjinoyatchilar uchun juda qulay sharoit ekanligini har bir yosh bilmog'i lozim. Virtual tarmoqda daxshat solish, virus va boshqa zararli dasturlar, qonunga zid axborotlar tayyorlash va tarqatish, elektron xatlarni ommaviy tarqatish, xakkerlik hujumi veb-saytlarga noqonuniy kirish, firibgarlik, mualliflik huquqini buzish, kredit kartochkalari raqami va bank rekvizitlarini og'irlash, shaxsiy ma'lumotlar, surat va videolarni og'irlab, ularni tarqatib yuborish tahdidi bilan odamlarni shantaj qilib, pul talab qilishlari ham mumkin. Siz kimsiz, qaysi mamlakatda yashaysiz - xakkerlar uchun buning ahamiyati yo'q. kompyuterdan

¹ "Convention on Cybercrime, Budapest, 23 November 2001."

² Kun.uz

foydalanayabsizmi, demak ular sizni istagan payt nishonga olishi mumkin”³. Yurtimizda kiberjinoyatchilikka qarshi kurash tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son farmonining 89-maqsadida “Kiberjinoyatchilikni oldini olish tizimini yaratish” kabi ustuvor vazifa belgilab berildi. Bu farmonning ikkinchi ilovasida esa “Tergov faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish, axborot-texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv faoliyatini yanada kuchaytirish” hamda “Kiberjinoyatchilikni oldini olish tizimini yaratish” ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalarni o'z ichiga olgan davlat dasturi tasdiqlanib amaliyotga tadbiq etildi⁴. Bugungi kunda kiberjinoyatchilik ayni bir shaxsga, uning shaxsiga doir ma'lumotlarga qaratilayotagni va buning oqibatida ko'plab insonlarga ham moddiy ham ma'naviy zarar yetayotgani sir emas. Aynan xakkerlar tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarni buzib kirish kabi jarayonlar ommalashmoqda va bunday holatlarning yuz berayotganida qisman insonlarning ham hissasi bor, ya'ni biz ijtimoiy tarmoqlardan xakkerlar tomonidan yuboriladigan “Bu sening fotosurating”, “Qaysi aktyorga o'xshaysiz”, “To'ydan lavhalar” kabi APK formatidagi fayllar aslida fishing bo'lib, biz ularni ochish chog'ida o'zimizning ma'lumotlarimizni o'z qo'llarimiz bilan topshirgan bo'lamiz. Bu ma'lumotlar esa maxfiy ravishda tashkil etilgan katta “qora axborot bozorlari” (dark.net) da katta mablag'ga sotilishiga asos bo'ladi.

Muhokama

Axborot dunyosida kiberjinoyatlar qamrovi darajasi shu darajada ommalashganki, yildan yilga yangi kiberjinoyatlar vujudga kelmoqda. Bularning asosiy sababi, avvalo, raqamli dunyoda sun'iy intellektning rivojlanganligi, internet axborot tizimining kundan kunga takomillashayotgani, turli ilovalarning paydo bo'layotgani va hokozolarni misol keltirishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar foydali jihatlari bilan birgalikda salbiy taraflarni ham keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, kiberjinoyatlarning ko'pchiligi yoshlar tomonidan sodir etilayotgani yoshlarda axborotga nisbatan iste'mol madaniyatining pastligi, yetarli ma'lumotga ega bo'lmasdan tavakkalchilik asosida kerakli axborotni keraksiz axborotdan ajratib ololmayotgani, turli insonlar ta'siriga tushib qolib, o'z g'arazli qilmishlarini amalga oshirayotgani achinarli. Tahlillarga ko'ra, dunyo bo'ylab har yili 500 milliondan ortiq kiberhujumlar uyushtiriladi. Har soniyada 12 insondan biri kibermakonda sodir etilgan hujumlar qurboniga aylanadi. Amerika Qo'shma Shtatlari, Fransiya, Angliya, Germaniya, Belgiya, Lyuksemburg kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatlarning 60-65 foizi kiberhujumlar orqali sodir etilmoqda. O'zbekistonda ham so'ngi uch yilda bu turdagi jinoyatlar 8,3 baravarga ko'payib, hozirda umumiy jinoyatchilikning qariyb 5 foizga yetgan. Xususan, noqonuniy bank moliya operatsiyalari orqali o'zgalarning plastik kartalaridagi mablag'larini o'zlashtirish, zararli viruslar tarqatish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o'yinlar, diniy aqidaparastlikka qaratilgan axborot xurujlari, onlayn savdo maydonidagi firibgarlik jinoyatlari ko'payib bormoqda⁵. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda mamlakatimiz faol harakat olib borayabdi. Kiberxavfsizlik bo'yicha bir qator hujjatlar qabul qilingan va qabul

³ Subanov O.S. Kiberterrorizm hamda axborot xurujlaridan yoshlarimizni himoya qilishda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari/ Axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami (2023 yil 18-may). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti. 2023. – 233-bet

⁴ Muxtorov J.S. Kiberjinoyatchilikning ijtimoiy va iqtisodiy xavfi/Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, muhandislik-texnik muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami. Toshkent-2024. 35-bet.

⁵ Komilov L.Z. Kiberjinoyatlarga qarshi xalqaro kelishuvlar va ularning milliy qonunchilikka implementatsiyasi/Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, muhandislik-texnik muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami. Toshkent-2024. 167-bet.

qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XX¹ bobi ham aynan Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar uchun ajratilgan. Ammo shunday bo'lsa-da, ayrim kiberjinoyatlar uchun jazo mexanizmi bo'shliqligicha qolgan. Masalan, sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan jinoyatlar, kiberbullying, deepfake hamda onlayn savdo munosabatlarida aniq huquqiy muommolar yetishmaydi va kodifikatsiyalashtirilmagan. Bu esa bevosita kiberjinoyatlarning sonini oshishiga zamin yaratmoqda.

Xulosa va takliflar

Raqamli dunyoda kiberjinoyatlarni oldini olish uchun, avvalo, milliy va xalqaro darajada aniq mexanizmlar ishlab chiqish darkor. Ayni vaqtda kiberjinyat bo'yicha birinchi yirik xalqaro shartnoma bu Budapest konvensiyasi hisoblanadi. Lekin O'zbekiston ushbu hujjatni ratifikatsiya qilmagan. Taklif sifatida aynan kiberjinoyatlarni kamaytirish uchun xalqaro hujjatlarni milliy qonunchiligimizga emplantatsiya qilishimiz darkor. Bundan tashqari kiberxavfsizlik, raqamli gigiyenaga oid bilimlariminni rivojlantirishimiz, yoshlar uchun bu borada o'quv mashg'ulotlari olib borilishi va hatto maktablarda bu bo'yicha darsliklar tashkil etilishi, kadrlar tayyorlash dasturini kuchaytirish, kadrlarning malakasi doimiy ravishda oshirilib borilishi kerak. Ayniqsa, yoshlarni kibertahdidlardan ogohlantirishimiz va buni sudgacha bo'lgan aniq mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Yuzaga kelayotgan yangi jinoyatlar uchun qonunlarda aniq jazo sistemasi ishlab tanologiyasini emas, aniq belgilab qo'yilgan huquq normasini qo'llashi jamiyatda qonunlarga nisbatan ishonch ruhini uyg'otadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, kiberjinoyatlar o'tkan asrdan buyon rivojlanib kelayotgan huquqbuzarliklardan biri va u kun sayin takomillashib o'zini yangi shakllarini yaratmoqda. Bu bo'yicha xalqaro kelishuvlar va milliy qonunchilik uyg'unligi, huquq sohasidagi aniq mexanizmlarni ishlab chiqish orqali kiberjinoyatlarni oldini olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Conventions on cybercrime. Budapest. 23 November, 2001.
2. Kun.uz
3. Subanov O.S. Kiberterrorizm hamda axborot xurujlaridan yoshlarimizni himoya qilishda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari/ Axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami (2023 yil 18-may). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti. 2023. – 233-bet
4. Muxtorov J.S. Kiberjinoyatchilikning ijtimoiy va iqtisodiy xavfi/Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, muhandislik-texnik muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami. Toshkent-2024. 35-bet.
5. Komilov L.Z. Kiberjinoyatlarga qarshi xalqaro kelishuvlar va ularning milliy qonunchilikka implementatsiyasi/Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, muhandislik-texnik muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami. Toshkent-2024. 167-bet.



**INNOVATIVE
ACADEMY**